



ISTE'MOL BOZORI

2017 yil yanvar-noyabr

Bugungi kunda, aholi ijtimoiy himoyasini muttasil yaxshilash bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida respublikada aholi sonining o'sishi, daromadlarining ko'payishi kuzatilmoqda, aholining ish haqi va pensiyalarning oshirilishi natijasida esa oziq-ovqat va noziq-ovqat tovarlariga bo'lgan talab o'zgarmoqda va chakana savdo aylanmasining hajmi oshmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning 11 oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 foizga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 11,2 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,0 foizga ko'payishiga olib keldi.

**Yanvar-noyabrda
yirik
korxonalarining
jami chakana savdo
aylanmasidagi
ulushi, foizda**



2016 y. 2017 y.

2017 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi hajmining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)




O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 foizga o'sdi.


Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 88,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 12,2 trln. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 12,8 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,3 foizga oshib, 3,0 mln. so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar-noyabr oylarida 2,5 mln. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahari (8,7 mln. so'm), Navoiy viloyati (4,1 mln. so'm) va Toshkent viloyatida (3,6 mln. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining tovar aylanmasi

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 2,6 trln. so'mni tashkil etdi va 2,0 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,7 foizni tashkil etdi.

Davlat statistika qo'mitasining
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
boshqarmasi
Nashr uchun mas'ul: A.Nadirov
(0371) 230-80-42



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Toshkent shahri (22,3 foiz), Toshkent (10,7 foiz), Farg'ona (8,8 foiz), Samarqand (8,5 foiz) va Andijon (7,8 foiz) viloyatlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.